

**QARZ SHARTNOMASI SHAKLIGA RIOYA ETMASLIK
OQIBATLARINING ILMIY TAHLILI: O'ZBEKISTON,
GERMANIYA VA ROSSIYA MISOLIDA**

Ibragimova Rayxon Shodmon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

rayxonibragimova135@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada O'zbekiston, Germaniya va Rossiya mamlakatlarining fuqarolik qonunchiligida qarz shartnomasining ahamiyati, qarz shartnomasi shakliga doir talablar va unga rioya etmaslikning huquqiy oqibatlari izchil tahlil etildi. Shuningdek, qarz shartnomasining mohiyatidan kelib chiqqan holda mazkur shartnoma shakliga rioya etishning ijobiy huquqiy natijalari hamda ilg'or xorij tajribasining yondashuvlari bayon etildi.

Kalit so'zlar: xususiy huquq, qarz, real, konsensual, funksiya.

**SCIENTIFIC ANALYSIS OF THE CONSEQUENCES OF
NON-COMPLIANCE WITH THE FORM OF THE LOAN
AGREEMENT: ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN,
GERMANY AND RUSSIA**

Ibragimova Raykhon

3rd year student of Private Law Faculty of
Tashkent State University of Law

rayxonibragimova135@gmail.com

Abstract. This article consistently analyzed the importance of the loan agreement in the civil legislation of Uzbekistan, Germany and Russia, the requirements for the form of the loan agreement and the legal consequences of non-compliance with it. Furthermore, based on the essence of the loan agreement, in the article described the positive legal results of compliance with this form of agreement and the approaches of advanced foreign experience.

Key words: private law, loan, real, consensual, function.

Kirish

Dunyo taraqqiy etish bosqichlarini tahlil etish barobarida, zamonaviy huquqiy hamjamiyatda fuqarolik munosabatlariga kirishish va unda ishtirok etish tamoyillariga to'la amal qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Alohida qayd etish lozimki, qarz shartnomasi va qarz shartnomasiga doir fuqarolik-huquqiy munosabatlari o'zining ahamiyatiga ko'ra klassik shartnoma turlaridan biri bo'lib, ijtimoiy hayot va bozor iqtisodiyoti sharoitida qarz munosabatlari sohasidagi shartnomalar tizimining elementi sifatida muhimdir.

Ta'kidlash joizki, qarz tushunchasining asosiy maqsadi olingan mulkni yoki mablag'larni ma'lum maqsadlarda sarflashdir. Shunga ko'ra, agar qarz oluvchining maqsadi to'liq amalga oshirilgan bo'lsa, unda qarzga olingan narsalarni qaytarishning iloji bo'lmaydi. Shu sababdan ham, qarzning mohiyati qarz beruvchi tomonidan berilgan aniq belgilangan narsalar yoki mablag'larni qaytarishda emas, balki qarzga olingan mablag'lar yoki narsalarning aniq miqdorini qaytarishdadir.

Qarz shartnomasi munosabatlariga kirishishda qarz qarz oluvchining ixtiyoriga o'tishi, u qarz beruvchidan olingan mablag'larni ixtiyoriy ravishda tasarruf etishi, so'ngra ma'lum vaqtdan keyin qarzni bir xil miqdorini qaytarishi kerakligi nazarda tutiladi. Qarz shartnomasi bo'yicha tomonlar o'z mol-mulkinging egasi bo'lgan har qanday fuqarolik huquqi subyektlari: muomalaga layoqatli fuqarolar va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Qarz shartnomasining mohiyati va qarz shartnomasi shakliga nisbatan talab doirasi va unga rioya etmaslikning oqibatlarini O'zbekiston, Rossiya va Germaniya davlatlari misolida tahlil etish MDH va Yevropa fuqarolik qonunchiligini mazkur shartnoma doirasida o'rganish uchun asos bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik-huquqiy munosabatida qarz shartnomasi shakliga

nisbatan talabning ahamiyati va mazkur talabga rioya etmaslikning huquqiy oqibatlariga qanday yechim berish mumkinligi masalasini ilgari suradi.

Shu o'rinda, alohida qayd etadigan bo'lsak, o'zaro ijtimoiy munosabatlarda qarz shartnomasi asosan og'zaki ko'rinishda tuzilishi, insonlarning ichki ishonchiga asoslanadi xolos. Ammo, huquqiy jihatdan baho berish va nizoli holat vujudga kelganda uni asoslantirish uchun esa og'zaki kelishuvga erishganlik muammoni bartaraf etolmaydi. Shuningdek, qarz shartnomasi shakli talablariga rioya etmaslikning ommalashuvi qarz oluvchilarning su'istemmoliigi uchun imkoniyat yaratishiga yo'l qo'yib beradi. Shu sababdan ham fuqarolik huquq tizimida qarz shartnomasining asl mohiyati va shartnoma shakliga nisbatan talablarning mavjud bo'lishi va unga rioya etilishi huquqiy muvofiqlikni o'zida mujassamlashtiradi.

E'tiborga molik jihat, qarz shartnomasi shakliga nisbatan qonunchilik talabining mavjud bo'lishidir. Bilamizki, qarz kelishuvi doirasida nizoli vaziyatlar ko'p bo'lib, uni huquqiy jihatdan hal etish murakkablik tug'dirishi mumkin holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan ham, qonunchilikda mazkur shartnoma shakliga nisbatan talab qo'yilishi va unga rioya etilishi mexanizmini ishlab chiqilishi kelgusida vujudga keladigan nizoli fuqarolik huquqiy munosabatlarini oldini olishga xizmat qilishini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida qarz shartnomasi shakliga rioya etmaslikning oqibatlari

Bilamizki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida qarz shartnomasi mustaqil fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida e'tirof etilgan bo'lib, unga ko'ra, qarz shartnomasi bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafga pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz

oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib, shuncha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni qaytarib berish majburiyatini oladi. Qarz shartnomasi pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi¹.

Fuqarolik qonunchiligimizdan kelib chiqqan holda qarz shartnomasini tahlil etadigan bo‘lsak, qarz shartnomasi real, bir tomonlama, haq evaziga yoki tekinga tuziladigan shartnomalar sirasiga kiradi. Qarz shartnomasi taraflar o‘rtasida huquq va burchlar shartnoma predmeti bo‘lgan pul yoki ashyoning topshirilishi vaqtidan e‘tiboran vujudga kelganligi sababli real shartnoma bo‘lib, shartnoma yuzasidan qarz beruvchi huquqlar olsa, qarz oluvchida burchlar vujudga kelishi natijasida qarz bir tomonlama shartnoma sifatida e‘tirof etilgan.

Bevosita, ilmiy izlanishimizdagi asosiy masala bo‘lgan qarz shartnomasi shakliga nisbatan talab doirasini tahlil etadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 733-moddasiga ko‘ra, qarz shartnomasi fuqarolar o‘rtasida agar bu qarzning summasi bazaviy hisoblash miqdorining o‘n barovaridan ortiq bo‘lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lganida esa, qarz summasidan qat’i nazar, yozma shaklda tuzilishi shartligi belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, qarz shartnomasi fuqarolar o‘rtasida tuzilganda og‘zaki ko‘rinishda tuzilishi mumkin, faqatgina qarz summasi BHMning o‘n baravaridan oshmasligi zarur. Mazkur summa narxining talab doirasidan oshishi qarz shartnomasining oddiy yozma shaklda tuzilishi uchun asos bo‘ladi. Bu qoida fuqarolar o‘rtasida tuzilayotgan qarz shartnomasiga tatbiq etiladi. Yuridik shaxslar o‘rtasidagi qarz shartnomasi qarz summasidan qat’i nazar yozma shaklda tuzilishi shartdir. Mazkur holat fuqarolik huquqiy munosabatida subyektga nisbatan talablarning o‘zaro turli ko‘rinishini ifoda etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 11-12-son.

Qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilganda shartnoma odatda shartnomaga qo'yiladigan talablar asosida rasmiylashtiriladi. Taraflar o'rtasida tuzilayotgan qarz shartnomasida quyidagi holatlar mavjud bo'lishi lozim.

1. Shartnoma tuzayotgan taraflar nomi aniq ko'rsatilishi lozim. Bunda shartnoma tarafi hisoblanadigan fuqarolarning ismi sharifi, manzili shartnomada ifodalanishi zarur.

2. Shartnoma predmetini belgilash.

3. Qarzga berilgan pul summasining qaytarilish muddatini amal qilish davri.

4. Qarz oluvchining majburiyatlari va qarz beruvchining huquqlari.

5. Agar qarz shartnomasi taraflari shartnomada foiz to'lashni nazarda tutishgan bo'lsa, foiz miqdori va muddatlari ko'rsatilishi.

6. Shartnoma shartlari bajarilmaganda va lozim darajada bajarilmaganda belgilanadigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik².

Ta'kidlash joizki, qarz shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik Fuqarolik kodeksining 109-moddasida nazarda tutilgan oqibatlariga olib keladi. Ya'ni agar qarz shartnomasi shakli yozma tuzilishi shart holatda unga amal qilmagan holda rasmiylashtirilsa, bu mazkur kelishuvni haqiqiy emasligiga olib kelmasada, ammo ma'lum bir cheklovlarni yuzaga keltiradi. Alohida qayd etadigan bo'lsak, qarz shartnomasi yuzasidan taraflar o'rtasida nizo chiqqan taqdirda taraflarni bitimning tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning ko'rsatuvlari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qilinadilar. Shu asosda mazkur holatga huquqiy jihatdan baho beradigan bo'lsak, qarz shartnomasi shakliga nisbatan qonunchilikda belgilangan talabga rioya etmaslik natijasida taraflar o'rtasida nizo yuzaga kelsa ular isbotlash doirasida guvohlardan foydalana olmaydilar. Bu esa o'z navbatida, mazkur nizoni hal

² Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019

etishni qiyinlashtirib qo'yilishiga olib keladi. Ammo, taraflar boshqa yozma dalillar bilan qarz shartnomasini tuzilganligini tasdiqlash huquqiga egadirlar.

Demak, qarz shartnomasi shakliga rioya etmaslik oqibatlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligida o'z aksini topgan bo'lib, shartnoma shakliga rioya etmaslik nizoli vaziyat yuzaga kelganda guvohlantirish huquqidan mahrum qilinish oqibatiga olib kelishini alohida qayd etishimiz lozim. Ammo, bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik qonunda yoki taraflarning kelishuvida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa uning haqiqiy emasligiga olib keladi.

Mazkur normani ishlab chiqishdan maqsad sifatida jismoniy shaxslar o'rtasidagi ko'p bo'lmagan summalarga qarz bitimlarini tuzishni soddalashtirish nazarda tutilib, bu yuridik shaxslar ishtirokidagi qarz shartnomalariga taalluqli emasligi kelib chiqishi e'tirof etiladi.

Amaliyotda qarz beruvchi bo'lib fuqaro, qarz oluvchi bo'lib esa yuridik shaxs ishtirok etgan huquqiy munosabatlar uchraydi, bu munosabatlar veksel berish yoki obligasiyalarni sotish bilan tasdiqlanmagan bo'ladi. Bunday holatda kelishuvning yozma shakli o'zaro huquqiy munosabatlar mavjudligining isboti bo'lib xizmat qiladi³. Mazkur muammoli vaziyatda huquqiy maydonda bahsli savol tug'iladi, taraflardan birining yozma tilxatining mavjud bo'lishi qarz shartnomasi shakliga rioya etilgan deb topiladimi yoki yo'qmi? Ushbu holat mamakatimiz qonunchiligida belgilangan bo'lib, qarz oluvchining tilxati ya'ni uning qarz olganligini tan olishi ko'rsatilgan yozma hujjat bo'lgan taqdirda uni qarz shartnomasini isbotlovchi asos deb olish mumkin. Fuqarolik kodeksi normasiga ko'ra tilxat tomonlarning xohish irodasi qanday huquqiy munosabatlarga qaratilganligini aniqlashga sabab bo'lgani uchun mazkur

³ Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарх: Профессional шарҳлар. Т 2./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013.

hujjatning mavjud bo'lishi qarz shartnomasini yozma tuzilgan deb baholash uchun asos bo'ladi.

Demak, O'zbekistonda qarz shartnomasi shakliga rioya etilmaslik oqibatlarini belgilangan bo'lib, nizoli vaziyat yuzaga kelganda guvohlantirish huquqidan mahrum qilinish bilan huquqiy oqibat yuzaga keladi.

Germaniyada qarz shartnomasi shakliga qo'yilgan talablar mezonlari

Qarz shartnomasidan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar tarixiy ko'rinishga ega holda, an'anaviy tarzda tuzilgan ilk bitimlardan biri sanaladi. Qarz shartnomasi (mutuum) birinchi marta Rim xususiy huquqida o'zining huquqiy konsolidatsiyasini olganligini alohida qayd etish lozim. Bu konsolidatsiya vaqt o'tishi bilan "XII jadval qonunlari" normalarining amal qilishiga to'g'ri keldi va miloddan avvalgi IV asrda sodir bo'lgan⁴. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, Qadimgi Rim huquqida qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlar, real shartnomaning eng dastlabki turidan boshlab, aynan narsa (datio rei) ikkinchi shaxsga o'tkazilgan paytda kelishuvga erishilgan deb qaralgan.

Germaniya fuqarolik huquqi asosan Rim xususiy huquqiga asoslanishi bois, qarz shartnomasidan majburiyatlarning paydo bo'lishi uchun asoslar va qarz shartnomasi shakliga Germaniya qonunchiligida qo'yilgan talablarni tahlil etishimiz lozim. Alohida ta'kidlaydigan bo'lsak, agar MDH davlatlari fuqarolik qonunchiligi qarz shartnomasining an'anaviy g'oyasidan kelib chiqsa va uni faqat real shartnoma sifatida belgilasa, Germaniya Fuqarolik Kodeksi uning konsensual modelini belgilaydi.

Ahamiyatli jihati, Germaniya Fuqarolik Kodeksida qarz shartnomasining huquqiy ko'rinishi o'ziga xos jihatlarga ega hisoblanadi. Germaniya fuqarolik

⁴ Франчози, Д. Институционный курс римского права : пер. с итал. / Д. Франчози. — М. : Статут, 2004.

huquqi klassik qarz shartnomasini ikki turga ajratadi - naqd pul qarz shartnomasi (Germaniya fuqarolik kodeksi 488 modda) va mulkiy qarz shartnomasi (Germaniya fuqarolik kodeksi 607 modda), ikkala shartnoma ham faqat konsensual shartnoma sifatida belgilanadi. Tahlil etadigan bo'lsak, Germaniya Fuqarolik Kodeksining 488-moddasida qarz shartnomasi bo'yicha qarz beruvchi qarz oluvchiga kelishilgan miqdorda pul berish majburiyatini oladi. Qarz oluvchi belgilangan muddatda foizlarni to'lash va qarzni qaytarish majburiyatini oladi⁵. Shu bilan birga, Germaniya FK 607-moddasida mulkiy qarz shartnomasi bo'yicha qarz beruvchi qarz oluvchiga kelishilgan ashyoni almashtirishni topshirish majburiyatini oladi. Qarz oluvchi ssuda uchun haq to'lashi va muddat tugashi bilan bir xil turdagi, sifatli va bir xil miqdordagi narsalarni qaytarishi shart etib belgilangan.

Alohida qayd etish lozim bo'lgan jihat bu, Germaniya fuqarolik kodeksida O'zbekiston fuqarolik qonunchiligidan farqli ravishda, qarz shartnomasi shakliga nisbatan alohida talab belgilanmagan. Huquqiy jihatdan asoslaydigan bo'lsak, Germaniya fuqarolik kodeksining V bob⁶ qarz shartnomasi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda qarz shartnomasi tushunchasi, unga to'lanadigan foizlar hamda qarz shartnomasini tugatish uchun asoslar belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, Germaniyada qonunchiligida qarz shartnomasining shakliga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri va qat'iy talab mavjud emas. Ahamiyatga molik jihat, romano-german huquq oilasida vujudga kelgan ushbu munosabat turiga nisbatan qarashlar Germaniya fuqarolik qonunchiligida tubdan farq qilishini qayd etishimiz mumkin.

Germaniya fuqarolik qonunchiligini tahlil etish barobarida, qarz shartnomasining shakliga doir talablarni aniqlashtirish maqsadida bitim va

⁵ Staudinger/Freitag BGB § 488. Rn. 15. Schimansky/Bunte/Lwowski, BankrechtsHandbuch 5. Auflage 2017. Pamp.

⁶ <http://oceanlaw.ru/wp-content/uploads/2018/02/1900 -1.pdf>

shartnomalar shakliga bo'lgan talablar mezoniga alohida e'tibor qaratdik. Germaniyada yozma tarzda tuzilishi talab etiladigan bitim va shartnomalar mavjud bo'lib, ular qatorida iste'mol uchun qarz shartnomasi mavjud hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, qarz shartnomasining mazkur turiga nisbatan yozma tarzda tuzish talabi belgilangan. Shu asosda, bitim shakli to'g'risidagi talabga rioya qilmaslik oqibatlari, bitimni haqiqiy emas deb topish masalasi bilan bog'liq holatlarga to'xtaladigan bo'lsak, Germaniyada fuqarolik qonunchiligida bitimning qonun bilan belgilangan shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi, deb belgilangan. Shu bilan birga, yozma shakl talabi bilan bog'liq holda, unga rioya etilmagan bo'lsa Germaniya qonunchiligi talab qilinadigan majburiyatni bajarish orqali bitimni "qonuniy tuzish" imkoniyatini batafsil tartibga solishni nazarda tutadi.

Demak, Germaniya fuqarolik huquq tizimida qarz shartnomasi o'zining konsensual mohiyati va qonunchilik tomonidan tartibga solish doirasi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Rossiya Federatsiyasida qarz shartnomasining shakliga rioya etmaslik oqibati

Zamonaviy Rossiya fuqarolik huquqi, o'tgan asrning 90-yillari boshidan buyon o'z islohotlari jarayonida xorijiy yuridik buyruqlarning huquqiy tajribasiga asoslanadi. Bu o'sha davrda Rossiya qonunchiligining rivojlanishining beqarorligi va nomuvofiqligi bilan bog'liq. Bugungi kunga kelib, Rossiya fuqarolik qonunchiligida o'z navbatida MDH davlatlari ichida yuqori darajada muvofiqlashtirilgan va tartibga solish normalari to'liq holda aks ettirilgan.

Rossiyada qarz shartnomasining mohiyati haqidagi savol fuqarolik olimlari orasida hali to'liq hal etilmagan. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik

Kodeksining 807-moddasi 1-bandining 2-bandini tahlil qilgandan so'ng, mazkur moddada qarz shartnomasi real degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ammo, shartnomaning tabiati masalasini hal qilishda o'ziga xoslik kelajakda qarz berilishi mumkin bo'lgan shartnoma tuzish qobiliyatidir.

Shu sababli, qarz shartnomasini faqat real shartnoma sifatida baholashimiz mumkin emas, chunki kelajakda qarz mablag'lari yoki narsalarni taqdim etish uchun tuzilgan shartnomaning bu turi allaqachon qarz beruvchining kelajakda qarz berish majburiyati yuzaga kelgishi tufayli kelishuv tabiatan konsensual hisoblanishi kerak. E.A.Suxanovning ta'kidlashicha, qarz shartnomasining an'anaviy g'oyasi "maxsus konsensual qarz shartnomasi zarurligini oldindan belgilab qo'ygan rivojlangan bozor aylanmasi uchun mo'ljallanmagan"⁷.

Bevosita, Rossiyada qarz shartnomasi shakliga nisbatan qo'llanilgan talab doirasini tahlil etadigan bo'lsak, qarz beruvchi yuridik shaxs bo'lgan yoki fuqarolar o'rtasida tuzilgan ushbu shartnomaning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida 10 baravari miqdorida bo'lgan hollarda qarz shartnomasi oddiy yozma shaklni talab qiladi, bu oddiy yozma shakldagi umumiy qoidalarga Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 161-moddasi 1-bandida belgilangan. Fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda belgilangan limitdan kam miqdorda qarz shartnomasi og'zaki ham tuzilishi mumkin.

Shuni yodda tutish kerakki, oddiy yozma shaklga rioya qilmaslik o'z-o'zidan qarz shartnomasining haqiqiy emasligiga olib kelmaydi. Ammo Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 162-moddasi 1-bandiga muvofiq, bunday vaziyatda tomonlarga faqat qarz shartnomasini yoki uning shartlarini qo'llab-quvvatlovchi ko'rsatmalarga murojaat qilish taqiqlanadi, ya'ni qonun

⁷ Гражданское право : учебник : в 3 т. Т. 2 / Е. Н. Абрамова, Н. Н. Аверченко, К. М. Арсланов [и др.]; под ред. А. П. Сергеева. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Проспект, 2020.

nizo yuzaga kelganda taraflar tomonidan sudga taqdim etiladigan dalillar doirasini cheklaydi. Agar nizo bo'lmasa, bunday shartnoma haqiqiy deb hisoblanadi⁸. Fuqarolik Kodeksining 808-moddasi 2-bandiga muvofiq qarz shartnomasi tuzilganligining an'anaviy yozma dalili qarz oluvchining tilxati yoki qarz beruvchi tomonidan qarz oluvchiga ma'lum miqdordagi pul yoki ma'lum miqdorni o'tkazganligini tasdiqlovchi boshqa hujjat bo'lishi mumkin. (masalan, obligatsiya, tovar uchun hisob-faktura va boshqalar)⁹.

Rossiya sud amaliyotida qarz shartnomasi bo'yicha pul mablag'larini o'tkazish faktini tomonlarning tushuntirishlari, ko'rsatmalari bilan tasdiqlash mumkin emasligi bir necha bor tushuntirilgan. Buning sababi shundaki, majburiyatni bajarish bitim turi bo'lganligi sababli, majburiyatni bajarishda bitim shakli va uning buzilishi oqibatlari to'g'risidagi umumiy qoidalarga rioya qilish kerak. Shunday qilib, agar majburiyat yozma ravishda ifodalanishi kerak bo'lsa, unda uning bajarilishi, bu holda qarz oluvchiga qarz berish yozma ravishda amalga oshirilishi kerak.

Demak, Rossiyada fuqarolik huquqiy munosabatlarda qarz shartnomasi shakliga qo'yilgan talab mavjud bo'lib, qonunchilik normasi bilan belgilangan.

Xulosa

Barchamizga ayonki, aksariyat G'arb mamlakatlari huquqiy tartibotlari ko'p asrlar davomida izchil rivojlanib bordi. Aynan mazkur davlatlarda huquqiy tartibot sohasida rivojlanish menimcha huquqiy muomalaning barqarorligini ta'minlagan omil hisoblanadi. Bu holat, O'zbekiston Respublikasi uchun ham xos xususiyat hisoblandi albatta. O'zbekiston Respublikasi huquq fanining xorijiy davlatlar huquq sohalari bilan an'anaviy tarixiy bog'liqligi yurtimizda

⁸ Российское гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. II: Обязательственное право / Отв. ред. Е.А. Суханов. – 2-е изд., стереотип. – М.: Статут, 2011.

⁹ Павлодский Е.А. Договоры организаций и граждан с банками. М., 2000.

mavjud fuqarolik huquqi tamoyillarini ustuvorligida namoyon bo'ladi. Qarz shartnomasi shakliga rioya etmaslik oqibatlarini O'zbekiston, Germaniya va Rossiya davlatlari misolida ilmiy tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik.

Birinchidan, qarz shartnomasi shakliga rioya etmaslik oqibatlari masalasida O'zbekiston Respublikasida normativ hujjatlar(qonun, qonunosti)larni vujudga keltirish jarayonida va bugungi norma ijodkorligida ayrim xorijiy mamlakatlarning huquqiy sohadagi tajribasining eng afzal xususiyatlari yurtimiz qonunchiligida implementatsiya qilingan.

Ikkinchidan, shuni alohida yakuniy xulosa sifatida aytish lozimki, bugungi shiddat bilan rivojlanyotgan davrda barcha munosabatlar singari huquqiy munosabatlar sohasi ham rivojlanmoqda. Jumladan, tartibga solishga ulgurmasdan amaliyotda qo'llanilayotgan qarz shartnomasi shakliga rioya etmaslik oqibatlari bilan bog'liq masalalarni zamonaviy dunyoda mukammal huquqiy tizimni barpo etishga intilayotgan boshqa mamlakatlar tajribasini ham tizimli va tadrijiy o'rganish, ulardan to'g'ri foydalanish, mamlakatimiz huquq tizimini yanada samarali rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, qarz shartnomasi shakliga rioya etish va to'g'ri rasmiylashtirish muhim hisoblanib, o'zaro tilxatnigina mavjud bo'lishi yetarli darajada aniqlik yo'qligi, qarzdor qarz summasini olganligini ko'rsatmagan yoki summani qaytarishni va'da qilgan, lekin uni olish faktini tasdiqlamagan hollarda qarz munosabatlari mavjudligi to'g'risidagi nizolarga olib kelishi tufayli qarz shartnomasi shakliga amal qilish kelgusidagi nizoli vaziyatlarni oldini olish va muammoni qonuniy jihatdan hal etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 11-12-son.
2. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.
3. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Профессional шарҳлар. Т 2./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013.
4. Франчози, Д. Институционный курс римского права : пер. с итал. / Д. Франчози. — М. : Статут, 2004.
5. Staudinger/Freitag BGB § 488. Rn. 15. Schimansky/Bunte/Lwowski, BankrechtsHandbuch 5. Auflage 2017. Pamp.
6. <http://oceanlaw.ru/wp-content/uploads/2018/02/1900-1.pdf>
7. Шапп Я. Система германского гражданского права. – М.: Междунар. отношения, 2006
8. Гражданское право : учебник : в 3 т. Т. 2 / Е. Н. Абрамова, Н. Н. Аверченко, К. М. Арсланов [и др.]; под ред. А. П. Сергеева. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Проспект, 2020.
9. Российское гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. II: Обязательственное право / Отв. ред. Е.А. Суханов. – 2-е изд., стереотип. – М.: Статут, 2011.
10. Павлодский Е.А. Договоры организаций и граждан с банками. М., 2000.
11. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
12. Azimjon, I. (2022). ZARAR–YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.
13. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.
14. Akhorkulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.